



THEORETICAL ISSUES OF THE STUDY OF A LITERATURE TEXT FROM A LINGUOPRAGMATIC POINT OF VIEW

(Based on the novel “Between Two Doors” by O’tkir Hoshimov)

Allaberganova Matluba Otabayevna,

Linguistics: Master’s student in the field of Uzbek language

Urgench Ranch Technological University

Annotation: This article is devoted to the issue of linguopragmatic analysis of a literary text and reveals the relevance of this approach in modern linguistics. It emphasizes the need to deeply study not only structural and semantic features, but also communicative and interactive aspects when analyzing a literary text. The main purpose of linguopragmatic analysis is to determine the author’s communicative intention, the level of reader acceptance, and the significance of semantic-pragmatic figures in the text in creating artistic content. At the same time, the main linguopragmatic features of literary texts, including speech acts, presupposition, implicature, irony and metaphor, are analyzed to help understand the mechanisms of aesthetic-moral communication between the author and the reader using communicative tools such as:

Keywords: literary text, linguopragmatics, communication, context, author, reader, implicature, presupposition.



BADIIY MATNNI LINGVOPRAGMATIK JIHATDAN O'RGANISHNING NAZARIY MASALALARI

(O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani asosida)

Allaberganova Matluba Otabayevna,

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola badiiy matni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur yondashuvning zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarbligini ochib beradi. Unda badiiy matni tahlil qilishda, nafaqat, strukturaviy va semantik xususiyatlar, balki kommunikativ va interaktiv tomonlarni ham chuqur o'rganish zaruriyati ta'kidlangan. Lingvopragmatik tahlilning asosiy maqsadi – muallifning kommunikativ niyatini, o'quvchining qabul qilish darajasini va matndagi semantik-pragmatik figuralarning badiiy mazmuni yaratishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, badiiy matnlarning asosiy lingvopragmatik xususiyatlari, jumladan, nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura, ironiya va metafora kabi kommunikativ vositalar yordamida muallif va o'quvchi o'rtasidagi estetik-axloqiy muloqot mexanizmlarini tushunishga xizmat qilishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, lingvopragmatika, kommunikatsiya, kontekst, muallif, o'quvchi, implikatura, presuppozitsiya.



Kirish. Tilning inson hayotidagi roli, nafaqat, axborot uzatish bilan cheklanadi, balki u madaniy-ma'naviy qadriyatlarni, estetik tasavvurlarni va individual dunyoqarashni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matn bu borada tilning eng yuqori estetik shaklidir. Uning mazmuni va shaklini to'laqonli tushunish uchun *lingvopragmatik yondashuv* zarur bo'ladi. Chunki badiiy matn faqat strukturaviy yoki semantik jihatdan emas, balki *kommunikativ va pragmatik* jihatdan ham boy manbaga ega.[1]

Lingvopragmatika: nazariy asoslar va rivojlanish bosqichlari.
Lingvopragmatika — bu til birliklarining real nutq jarayonida, muayyan kommunikativ vaziyatda qanday ishlatilishini, ularning maqsadi, ijtimoiy kontekstdagi o'рни va ular orqali amalga oshirilgan kommunikativ niyatlarni o'rganuvchi soha hisoblanadi.[8]

Lingvopragmatikaning asoschilari qatoriga P.Grays, J.Searle, D. Levinson, T.A.Van Deyk kabi olimlarni kiritish mumkin. Graysning kooperativ prinsipi va implikaturalari, Searlening nutq aktlari nazariyasi va Levinsonning pragmatik interfeyslar haqidagi ishlari badiiy matnni tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.[2]

Keyingi yillarda matnshunoslikda, ayniqsa, badiiy matn tahlilida faqatgina struktural yondashuv emas, balki tilning kommunikativ va ta'sir etuvchi funksiyasini tushunish uchun pragmatik yondashuv ham zarurdir. Hozirgi kunda tilni inson faoliyati (antroposentrik paradigma) kontekstida o'rganish dolzarb bo'lib, badiiy matnni faqat ma'no tashuvchi tuzilma emas, balki murakkab kommunikativ akt sifatida tahlil qilishni talab qiladi. Badiiy matnda aksar ma'no yuzada emas, balki



implitsit shaklda (yashirin) mavjud bo'ladi. Yozuvchi niyati (illokutiv kuch) va o'quvchi reaksiyasi (perlokutiv effekt) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun lingvopragmatik metodologiya eng samarali vosita hisoblanadi.

Badiiy matnning lingvopragmatik xususiyatlari.

Badiiy matn pragmatik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

- *Muallif va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya:* Muallif o'z niyatini badiiy obrazlar, metaforalar, simvol va boshqa estetik vositalar orqali uzatadi. O'quvchi esa bu niyatni kontekstual va madaniy bilim asosida talqin qiladi.

Nutq akt: Har bir badiiy ifoda, dialog yoki monolog — bu ma'lum illokutsion va perlokutsion kuchga ega. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi dialoglar orqali qahramonning xarakteri va ijtimoiy holati ochib beriladi:

O'tin ho'l-da, aka! - deydi o'zini oqlab. - Yomg'irda qolgan. - Yomg'irdamas, do'lda! - deydi «Tuya» amaki baqirib. Qiyqiriq, kulgi quloqni yorgudek bo'ladi.

Presuppozitsiya va implikatura: Badiiy matn ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin o'quvchi tomonidan anglanishi kutilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Badiiy matnd apresuppozitsiya muallif va o'quvchi o'rtasida umumiy kognitiv zamin yaratishga xizmat qiladi.[3]



Kontekst va interpretatsiya masalasi: Lingvopragmatik yondashuvda kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega. Badiiy matnning mazmuni uni yaratish va qabul qilish jarayonidagi madaniy, tarixiy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq. Kontekstni hisobga olmagan holda badiiy matnning pragmatik ma’nosi noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.[7]

:

- *Ironiya va kinoya:* O‘quvchidan ma’lum darajada pragmatik kompetensiyani talab qiladi. Masalan, O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida o’sha davrning fojiasini, insoniy qadriyatlarning oyoqosti bo‘lganini ifodalashda ushbu vositalar muhim yondashuv bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, roman fonidan o‘rin olgan **“Hamma narsa xalq uchun! G‘alaba yaqin!”** kabi rasmiy shiorlar aslida esa oddiy xalq og‘ir turmush, ochlik va qiyinchilik, ijtimoiy adolatsizlik hukm surgan sharoitda kun kechirayotganini ochib beradi. Yana asarda frontga “Vatan himoyasi” uchun jo‘natilgan yigitlar urush maydonida jang qilayotgan bir paytda ularning oilalari ochlikdan yoki zulmdan azob chekishayotgani achinarli holatdir.
- *Metafora va simbolika:* Ular badiiy kontekstda muallifning kommunikativ niyatini berkitilgan tarzda ifodalaydi. Masalan, **“Eringizning aqli toshni yoradi, ovsinjon!”**
- **“Zakunchining bir og‘iz gapiga achchiq qilib, erta-indin tug‘ay deb turgan galanska sigirni sotib keldi.”**



- *Pragmatik markerlar* (masalan, “balki”, “axir”, “yo‘q-da” kabi so‘zlar) orqali muallif matnga o‘z munosabatini bildiradi. Masalan, **“Lekin uchta medal berishdi. Nimaga?..Balki, imonim butligi uchundir...”**
- **“Axir yaxshi ko‘rganidan, azbaroyi kuyib ketganidan shunaqa qildi-ku! Nega men ham tiz cho‘kib oyog‘idan o‘pmadim”**. [4]

Xulosa: Badiiy matnni lingvopragmatik jihatdan o‘rganish zamonaviy filologiya va tilshunoslikning dolzarb va keng ko‘lamli yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv matnning faqat strukturaviy va semantik emas, balki kommunikativ va interaktiv tomonlarini ham chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Ayniqsa, muallifning kommunikativ maqsadi, o‘quvchining qabul qilish darajasi, kontekst va vaziyatning semantik-pragmatik tahlili badiiy asarning chuqur ma‘no qatlamlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvopragmatik yondashuv badiiy matnda yashirin (implicit) ma‘nolar, presuppozitsiyalar, implikaturalar, nutq aktlari, ironik va metaforik ifodalar kabi kommunikativ unsurlarni aniqlashda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Bunday komponentlar matnning faqat til vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik muloqot vositasi sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Xususan, adib tomonidan tanlangan til vositalari orqali u o‘zining estetik, ideologik yoki axloqiy qarashlarini o‘quvchiga qanday yetkazadi, bu jarayonda o‘quvchi qanday kommunikativ strategiyalar orqali ushbu ma‘noni anglaydi — bularning barchasi lingvopragmatikaning diqqat markazidadir. [5]

atik tahlili nafaqat matnning mazmuniy qatlamlarini yoritish, balki o‘quvchi bilan muallif orasidagi estetik hamda axloqiy muloqot mexanizmlarini anglashga xizmat



qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy asarlarning tarbiyaviy, madaniy va estetik

Shuningdek, lingvopragmatik yondashuvni adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari integratsiyasida qo‘llash nazariy va amaliy jihatdan yangi izlanishlarga yo‘l kontekst, gender va ijtimoiy nutq strategiyalari kabi yo‘nalishlarda qo‘shimcha

Kelgusida bu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy ishlar, xususan, o‘zbek badiiy lingvopoetik elementlarning pragmatik vazifalarini o‘rganish orqali bu fan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Yusupova D.X.** Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent: Fan. (2008).
2. **Sultonova M.X.** Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. Toshkent: O‘zR FA Til va adabiyot instituti. (2010).
3. **Alimova M.** Til va nutq pragmatikasi. Toshkent: O‘qituvchi. (2014).
4. **Hoshimov E.** “Ikki eshik orasi” roman. Toshkent: Nurli dunyo. (2023).
5. **Xudoyberganova D.** “Badiiy matn kontekstida presuppozitsiya va implikaturalarning o‘rni” O‘zbek tili va adabiyoti, №4. (2017).
6. **Ahmadjonova M.** Pragmatik birliklar va ularning badiiy matnda ifodalanishi. Andijon: AndDU nashriyoti. (2020).
7. **Ahmadova G.** “Badiiy matnda pragmatik unsurlar: muallif niyati va o‘quvchi qabul qilishi” Til va adabiyot ta’limi, №2. (2021).



8. **Islomova S.** Lingvopragmatika asoslari va badiiy matnni tahlil qilish metodlari. Buxoro: BDU nashriyoti. (2023).